

ONA TILI HAQIDAGI SHE'RLARDA TARIXIY XOTIRA TALQINI (ISTIQLOL DAVRI SHE'RIYATI MISOLIDA)

1. Inoqova Nozima

2. Avaznazarov Odiljon Rahmatulloyevich

1. Qarshi davlat universiteti talabasi

2. Ilmiy rahbar, PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7731224>

Ulug' o'zbek shoiri Rauf Parfi adabiyotshunos Yashar Qosim bilan suhbatida shunday degandi: "Tarix xotirasi barcha zamonlarda poeziyaning diqqat markazida turgan. Shuningsiz hayotning, ijtimoiy fikrning taraqqiyoti amri mahol" [1;155-b]. Biroq o'tmishda xotira haqiqatini ifodaalashga harakatlar, urinishlar ko'p bo'lgan bo'lsa-da, she'riyatimiz bu yo'nalishda izchil va teran badiiy talqinlarni amalga oshirolmagan. Sababi siyosiy senzura hamisha ham bunga imkon beravermagan. Shu sababi Abdulla Oripovdek buyuk shoirlar tarixiy xotira qiynoqlarini quyidagicha mavhum ifodalashga majbur bo'lishgan:

Bilmayman, qiynaydi qaysi xotira,

Titroq yulduz kabi muzlagan shuur.

Biroq O'zbekiston mustaqillikka erishgach, tun qo'ynidan chiqqan porloq quyosh kabi milliy she'riyatimiz ham tom ma'noda erkinlikka, hurriyatga erishdi. Zotan, sho'rolar davrida ochiqchasiga aytilmagan fikrlar: vatan, erkinlik, ona tili, xalq dardi va boshqa milliy tuyg'ular haqida ash'or bitishga qo'rqib erkin ijod qila olmagan, bunday asarlar bitilgan taqdirda ham tanqidga uchragan qalam ahli mustaqillik davriga kelib erkinlik tug'yonlarini, xalqning, millatning bor his-tuyg'ularni, shukronalik kayfiyatini badiiy adabiyotda yaqqol namoyon qildilar. Adabiyot yangicha ko'rinish, yangicha ohang bilan avvalgi davr adabiyotlaridan farq qiladigan bo'ldi. Asarlarda hur fikrlilik, ijtimoiy tenglik, etnik bag'rikenglik, porloq kelajakka intilish kabi mavzular mustaqillik davri adabiyotining shakllanishida asosiy omil bo'ldi. Bu davr adabiyotida barakali ijod qilgan va ijod qilib kelayotgan shoirlarimizdan: Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Halima Xudoyberdiyeva, Usmon Azim, Xurshid Davron, Iqbol Mirzo, Mahmud Toir, Oydin Hojiyeva, Azim Suyun, Muhammad Ali kabi iste'dodli vakillarimiz she'rlarida vatan, ona, erk, xalqning orzu-o'ylari va istiqloq shukronasi madh qilina boshlandi. Ayniqsa, ona tili haqidagi she'rlar po'rtanadek otilib chiqdi. Ularda ona tilimizning kechmishi, bosib o'tgan sinovli yo'li, tarixiy xotiralar aks etdi. Jumladan, O'zbekiston xalq shoiri Xurshid Davronning "Ona tilim" she'rida quyidagi satrlarni ko'rishimiz mumkin:

Kelib ketdi necha dunyolar,

Kuldi hayot, yig'ladi o'lim.

Sen deb qurbon bo'ldi bobolar,

Ular ketdi, sen qolding, tilim.

Belanchaging uzra Koshg'ariy,

Kuylab o'tdi qadim navoni.

Va navqiron yaproqlaringga

Dil qonini berdi Navoiy.

Ushbu misralarda ona tilimizning mashaqqatli yo'llarni bosib o'tganligi tilimizning barqaror bo'lishi Cho'lpon, Qodiriy, Fitrat kabi millatparvarlar nafaqat xalq ozodligi uchun, balki ona tilimizning ham umri boqiy bo'lishi uchun boy madaniy merosini – asarlarini ham qoldirdilar.

Shoir mana shunday jafokash adiblarni keltirib o'tish bilan birga, tilimiz rivojlanishining poydevoriga asos bo'lgan Koshg'ariy hamda Navoiy singari buyuk namoyandalarini ham keltiradi. Bilamizki, Koshg'ariy XI asrda barcha turkiy qabilalarni kezib, turkiy til dialektlarini to'plab "Devonu lug'otit turk" asarini tuzadi va bu orqali turkiy til rivoji va saqlanib qolishiga, kelgusida tilni o'rganishda kerakli manba bo'lishiga xizmat qiladi. Nizomiddin Alisher bobomiz esa nafaqat ona tilimizning, balki milliy adabiyotimizning ham yorqin yulduzi bo'lib, ona tilimizning rivojiga, takomiliga juda ulkan hissa qo'shgan. Zamonasi forsiyo'ylaridan farqli o'laroq qadim turkiy tilda ijod qilib, uning obro'sini, sha'nini baland qilivchi, buyuk asarlar bitgan. Shoir ushbu she'rda nihoyatda nozik satrlar ila Koshg'ariyni belanchakdagi go'dakni ehtiyotlab katta qilgan kabi rivojlanib kelayotgan turkiy tilga kerakli vaqtda tirgak bo'lgan tirgovuch degan bo'lsa, Navoiy bobomizni siyoh qolib, dil qonidan bo'lsa-da asarlar bitgan jafokash, – deya tasvirlaydi.

Samarqanddan Bobur ketarkan
Dilda bo'g'ib hasrat sasini,
Olib ketdi ona yurtidan
Turkiy tilim, birgina seni.

Muallif ushbu misralarda Temuriy shahzoda shoh va shoir bo'lmish Boburni 1511-yil Samarqandni Shayboniyxonga boy berib qo'yganligi tufayli uni tashlab chiqishga majbur bo'lganligi, vatanidan hech narsasiz ketsa ham o'z ona tilini u bilan qolganini keltirar ekan, bunda Boburga faqatgina o'z ona tili sadoqat qilganligini, u qayerda bo'lsa, o'z milliy tili ham u bilan birgaligini tasvirlaydi.

Mashrabmas, sen osilding dorga,
Nodiramas, sensan so'yilgan.
Hoziqingmas, sening, ey tilim
Boshing ayru, ko'zing o'yilgan.

Ilk misrada turkiy tilda ijod qilgan, tasavvuf vakillaridan biri, o'zining "Devoni Mashrab" asari bilan asari bilan mashhur bo'lgan Shoh Mashrabning 1711-yil Balx hokimi Mahmudbiy Qatag'on tomonidan dorga osilishi nazarda tutilgan bo'lib, shoir ona tiliga qarata Mashrab emas sen dorga osilding, ya'ni shuncha taqiq-u tazyiqqa uchrading, – demoqchi bo'lgan. O'zbek shoirasi, millatparvari Mohlaroyim Nodira ona tilimizda salmoqli darajada ijod qilib, fors-tojik tilidan tashqari ko'proq o'z ona tilimizda g'azallar bitgan. U Qo'qon xonligi tojdorlaridan bo'lishiga qaramay, 1842-yilda Buxoro amirligi hukmdori Amir Nasrulloh tomonidan shavqatsiz qatl etiladi. Shoir ona tiliga qilingan zulm (ruslashtirishga urinish) uni qatl qilish bilan barobar ekanini tarixiy xotiraga sinkretik holda mahorat bilan tasvirlab beradi. Keyingi misraga o'tsak, asl ismi Junaydullo Islomshayx o'g'li Hoziq (XVIII asr oxiri Hirot – 1843-yil Shahrisabz)ni tilga oladi. U shoir va tarjimon bo'lib, "Voqeoti Islomiy", "Avlodlar shajarasi" kabi tarixiy-biografik risolalarni yozadi. "Ravzat us-safo" asarining 1-jildini tarjima qiladi. 1842-yilda Nasrullaxon Qo'qonni bosib olgach, Hoziq uning tazyiqiga uchraydi va o'ldiriladi. Shoir Hoziqni tilga olarkan, bu orqali ona tili ham shunday shafqatsizlarcha bosimga uchraganiga ishora qiladi.

Ammo dushman o'ldirgan botir
Tirilgandek yana qasosga,
Mangu borsan va mangu qodir

To'ldirmoqqa yerni ovozsizga.
 Vatan uchun baxsh etib jonni
 Tirilgandek yana qasosga
 Farzandlaring to'kkan har qonni
 Shimirding sen o'xshab giyohga.
 Ona tilim, omon bo'l mangu
 Sen borsan-ki men ham o'lmayman.
 Tildan qolsam seni Oybekdek
 Men ko'zlarim bilan so'ylayman.

Xurshid Davron she'rni yakunlar ekan, ona tilining azobli tarixini, uning qayg'uli kechmishini bir-bir sanab o'tgach, ona tiliga qarata "Mangu borsan" deya uning barqaror til ekanligini ta'kidlaydi. Agarki, shoir tildan qolgudek bo'lgan taqdirda ham ona tilidan voz kechmay, uni xuddi xastalanib qolgan Oybek umrining oxirida ko'zlari bilan so'zlagani kabi "Ko'zlarim bilan so'ylayman" deb nafis satrlar ila yakunlaydi.

Mustaqillik davri adabiyotining yana bir yorqin namoyondasi, O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo ona tili haqida "Til – odam DNKsidagi ohanglar jilosidir", – degan fikrni bildiradi. Darhaqiqat, til vatanga, millatga bo'lgan hurmatning bosh ifodasidir. Millatning ertangi kuni, tilning bardavomligi bilan chambarchas bog'liqdir. Zamonlar osha uning sayqallanib borganini esa tarixga nazar tashlab bilib olishimiz mumkin. Iqbol Mirzoning "Ona tilim, o, ona tilim" she'rini oladigan bo'lsak, unda tilimizning tarixiy xotiralarga boyligini, asrlar osha o'z qadr-qimmatini yo'qotmay kelganini ko'rishimiz mumkin:

Qat-qatingda ko'rinur fe'lim,
 Yuragimsan, qalbim va dilim.
 Birlashtirding xalq bo'ldi elim,
 Ona tilim, oh, ona tilim.
 Bilga Qog'on hayqirig'i sen,
 Alp Er To'nga chaqirig'i sen,
 Tengriqutning asl tug'i sen,
 Ona tilim, mardona tilim.

Mahoratli shoir dastlabki ikki bandda juda chiroyli misralarni joylagan-ki, undagi so'zlarning ohangdorligi ham bir-biriga singishib ketgan. Muallif ona tilini butun boshli xalqni birlashtira olgan ulkan kuch sifatida ta'riflaydi. Keyingi misralarda esa bevosita tarixiy shaxslarni xotirlab, ona tilimiz – turkiy tilda bitilgan 12 asrlik tarixga ega Bilga xoqon bitiktoshi, Alp Er To'nga marsiyasi kabi asarlarni tilga olish orqali turkiylar davlatchiligi asoslari, turkiylarning dard-u qayg'ulari ona tilimizda kuylangan asarlar orqali yangraganiga ishora qiladi.

Biz bemalol, faxr bilan yuqoridagi manbalar ona tilimizning shakllanishi va saqlanib qolishi uchun poydevor vazifasini o'taganini ayta olamiz.

Senda suron solmishdi Temur,
 Bir so'zla yurt olmishdi Temur,
 Sendek mangu qolmishdi Temur,
 Ona tilim, shohona tilim.

Ushbu misralarda shoir XIV asrning buyuk davlatchilik asoschisi Temur obrazini kiritgan, Temurdek buyuk shaxs soʻzlagan til, shu til bilan suron solib, zafarlar quchgan va xuddi Temur nomi kabi mangu qoluvchi til ekanligi haqida fikr yuritadi.

Alisherning ilkida chechak,
Kimda mehnat, kimgadir emgak,
Shayboniydan armonli ertak,
Ona tilim, afsona tilim.

Bilamizki, ona tilimizning ravnaqiga ulkan hissa qoʻshgan inson – Alisher Navoiydir. Shoir misrada ona tilimizni Navoiy qoʻlida bamisoli chechakka aylandi, yaʼni, ochilmagan yangi qirralari ochildi, gullab yashnadi, demoqchi boʻlsa, keyingi misrada ona tilimizdagi bir soʻzning ikki xil maʼnosi (mehnat, emgak)ni berib oʻtadi. Bu oʻz-oʻzidan koʻrinadiki, tilimiz boy tildir. Bundan tashqari, shoir sheʼrda “Shayboniynoma” ga ham ishora qilib oʻtadi.

Urol togʻlar qayragan tilim,
Hindu elda yayragan tilim,
Sanduvochlar qayragan tilim,
Ona tilim, durdona tilim.

Shoir ona tilini shunchalar goʻzal deb tasvirlanganki, sanduvoch-qaldirgʻochlar ham shu tilda kuylaydi degan goʻzal tasvir ishlatadi.

Sogʻinganlar sen deb ado,
Agʻriqo deb berasan sado,
Yaxshi soʻzsan men senga gado,
Ona tilim, shukrona tilim.

Muallif ona tilini qadri baland til deb tasvirlaydiki, kishi undan uzoqlashsa, uni sogʻinadilar, agarki, ona tilida ikki ogʻiz yaxshi soʻz aytilgudek boʻlsa, hatto gado boʻlishga-da rozi boʻladigan tildir deydi.

Salomat boʻl, omon boʻl, bor boʻl,
Avlodlarga oʻrtoq boʻl, yor boʻl,
Dunyo qadar sen barqaror boʻl,
Ona tilim, yagona tilim.

Sheʼr soʻngida esa shoir Iqbol Mirzo ona tilimizning barqaror boʻlishini yanada kamol topishini istab “Dunyo qadar sen barqaror boʻl” degan misralarni kiritadi.

Mustaqillik davri adabiyoti bir jihati bilan boshqa davr adabiyotlardan farq qilib turadi: bu davr adabiyotida shoirlar, yozuvchilar, publitsistlar, bemalol, hech narsadan qoʻrqmay ijod qildilar. Ular endi kimlarningdir xohishiga koʻra emas (shoʻrolar davrida baʼzi adiblar buyurtma bilan, ular xohishidagi asarlarni yozishga majburlangan) oʻzlarining mustaqil fikrlarini, erk tugʻyonlarini kuylaydigan boʻldilar. Mana shunday adiblardan biri Mahmud Toir ham oʻz sheʼrlarida vatan, ona, erk, tinchlik, ona tili va boshqa mavzularda ijod qilgan mustaqillik shoirdir. Uning “Ona tilim” sheʼriga nazar tashlasak: Qadrim soʻraganda qayrogʻim, tilim, Yorning taʼrifida qaymogʻim, tilim, Yovning yuragiga titroqlar solgan Alpomish belida belbogʻim, tilim. Shoir tilni inson qadrining qayrogʻiga, hatto yorni taʼriflashda ham eng shirin soʻzlar tilimizda mujassamligini taʼkidlash bilan birga Alpomishdek dovyurak yigitlarning ori – belbogʻiga tilni qiyos qiladi.

Yassaviy baytida tumorim, tilim

Navoiy nazmida sen orim, tilim
Kumushning vasfida betakror malak
Qodiriydan qolgan yodgorim, tilim.

Mahmud Toir adabiyotimiz va tilimizning yorqin namoyondalari bo'lmish Yassaviy va Navoiyni keltirar ekan, ularni tilimizning tumoriga qiyoslaydi. So'ngra ona tilimizda ilk bor roman yozgan adib – Abdulla Qodiriy tilga olinadi. Uning “O'tgan kunlar” asarining bosh qahramoni Kumushning vasfini ta'riflashda tilimizning betakrorligini ko'rishimiz mumkin degan fikrlarni bildirgan shoir.

Qadrin so'rasangiz, qarog'im, tilim
Ko'ngil osmonida charog'im, tilim
Nonidek totli-yu, choyidek issiq
O'zbek ko'ksidagi chirog'im tilim.

Ona tilimizning naqadar azizligi, uning qadri qanchalik balandligini shoir tilni ko'zning qarog'iga, ko'ksidagi buloqqa qiyoslaganidan ham bilib olish mumkin. 1989-yil 21-oktabrda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgandan boshlab, til sohasida qanchadan qancha o'zgarishlar bo'ldi. Tilga hurmat, ehtirom ortdi. Buning isbotini esa mustaqillik davri adabiyoti namoyandalarining ijodida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, turli mavzudagi she'rlar qatorida ona tili mavzusidagi she'rlarni tahlil qilish orqali ham turkiy xalqlar tarixining necha mingyillik tarixiy xotirasiga, xotira qiynog'iga guvoh bo'lish mumkin. Shunday ekan kelgusi tadqiqotlarda o'zbek she'riyatida tarix xotirasi talqini masalasi jiddiy tekshirilmog'i lozim.

References:

1. Rauf Parfi. Saylanma. 2 jildlik, 2-jild. – Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2022. – 280 b.
2. Авазназаров О.Р. Алишер Навоий дostonларидаги йўл, йўловчи, сафар ва манзил талқинларида бадиий тушларнинг роли. “Alisher Navoiy” xalqaro jurnali. – 2022. – № 3. – Б.44–57.
3. Avaznazarov O.R. The role of the image of Saki in the Navoi's literary and historical mission. International Journal of Anglisticum. Literature, Linguistics and Interdisciplinary Studies. Volume: 9 / Issue: 3 / – Macedonia, 2020. – P.10–17.
4. Авазназаров О.Р. Image of wine in lyrics of Navoi. Ўзбекистонда хорижий тиллар. – 2019. – № 1. – Б. 163–170.
5. Нуриддинов Ш.Б. Авазназаров О.Р. Эпизоды сна в поэме Алишера Навои «Семь планет». Молодой ученый, 2015. – С.942-944.
6. Шодмонов Ғ. “Хамса” илмий-танқидий матнлари қиёсий тадқиқи ва уларни такомиллаштириш муаммоси. “Alisher Navoiy” xalqaro jurnali. – 2022. – № 3. – Б.64–78.